

BOLADA NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

Kazakova Ruxshona

Samarqand chet tillari instituti talabasi

Annotatsiya: *Har bir inson o'zining nutqi va muloqotiga ega, insonda nutq bolalikdan boshlab shakllanib boradi, insonning nutqi uni jamiyat va undagi odamlar bilan bog'lab turuvchi vosita hisoblanadi hamda inson o'zining nutqi va boshqalar bilan muloqotga kirishish orqali insonlar orasida o'z mavqeiga va o'rniga ega bo'la oladi. Shuning uchun har bir inson o'zining nutqi va insonlar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.*

Kalit so'zlar: *og'zaki va yozma nutq, nutqning rivojlanish davri, nutq buzilishining sabablari, fonetika, lug'atlar, grammatika.*

Nutq - bu insonlar bilan muloqotga kirishish va o'zining fikrlarini bayon etishning asosiy vositasi hisoblanadi va nutq ikki turga bo'linadi: og'zaki va yozma. Shuningdek, insonlarda nutq ularning temperamenti; bilan ham bog'liq hisoblanadi, ya'ni xolerik va sangvinik insonlarda yozma nutqqa qaraganda og'zaki nutq rivojlangan bo'ladi, melanxolik va flegmatik insonlarda esa og'zaki nutq unchalik shakllanmagan bo'ladi. Ba'zi insonlar bor o'zlarining fikrlari va g'oyalarini boshqalar oldida erkin ifoda eta oladi hamda ularning begona insonlar bilan muloqotga kirishib ketishi oson, ba'zilarda esa buning aksi, ya'ni ularning fikrlari va g'oyalari boshqalarnikiga qaraganda kuchli bo'lsa ham ular buni ochiqchasiga bayon eta olmaydi, ularga qurquv yoki hayajon to'sqinlik qiladi, bu maqolada esa shu kabi insonlarning nutqini rivojlantirishning samarali usullari yoritib beriladi.

Ma'lumki, insonda nutq bolalik paytida shakllanishni boshlaydi va ular uch xil bosqichni o'z ichiga oladi:

Birinchi bosqich - 2-4 oylikda shakllanadi va "tayyorlovchi" davr deyiladi,

Ikkinci bosqich - 7-8 oylikda shakllanadi va "sensor" nutq deyiladi,

Uchinchi bosqich - 10-11 oylikda shakllanadi va "motor" nutq deyiladi.

Birinchi bosqichda bolalar so'zlarni gapira olmaydi, ular faqat g'uldiraydi va biz ularning bu talaffuzi bilan xursand yoki xafa ekanligini bilishimiz mumkin. Ikkinci bosqichda esa bolalar ma'lum bir so'zlarni anglay boshlaydi, ulardan nimanidir so'rashsa uni tushuna oladi va doimiy ularning yonida bo'ladigan yaqin kishilarining ismlarini ko'p eshitaverib taniy oladi. Uchinchi bosqichda bolalar lug'atida ikkiyuzdan ortiq so'z bo'ladi, bu davrda bola qo'shiq aytishganda yoki ularga gapirishganda uni tinglay oladi va ba'zan ulardan nimalarnidir so'rashsa ular bunga javoban gapira olishadi. Mana shu uch bosqichdan so'ng bolalarning nutqi shakllanib boradi va ular kattalar bilan muloqotga kirisha boshlaydi. Bu davrda ba'zi bolalarda nutq shakllanmay qolishi mumkin. Nutqi shakllanmay qolishining ikki xil sababi bor: Birinchisi: Fiziologik,

Ikkinchisi: Ijtimoiy,

Fiziologik sabablarga bolada mavjud bo'lgan ba'zi bir kasalliklarni aytishimiz mumkin. Misol uchun, yaxshi eshitmaslik, tug'ma duduqlanish, bolaning ruhiyatining

rivojlanmay qolishi. Ijtimoiy sabablarga esa bolaga ota-onaning e'tiborining kamligi, rag'batlantirish yuqligi ya'ni oilaviy muhitning yomonligi, mактабда o'qituvchilar tomonidan jazolanish, atrofdagilarning barchasining uni eshitish uchun vaqtı yuqligi misol bo'la oladi, chunki bu birinchi navbatda bolada o'z-o'ziga past baho berishni oshiradi, uning hayotida yomon xulq-atvorni shakllantiradi, bu esa uning nutqiga ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Kelajakda u insonlar yonida o'zining g'oya va fikrlarini erkin bayon eta olmaydi. Bu vaziyatda esa albatta bolalarning nutqini rivojlantrish kerak. Chunki, agar bolalarning nutqi tushunarli, ravon, chiroyli bo'lса, uning fikrlash doirasi ham keng ko'lamli boladi, aqli ham tez rivojlanadi va uning xulq-atvori va o'zini tutishi ham shakllangan bo'ladi. Bolaning fikrlarini yozishi va kitoblarni o'qishga nisbatan qiziqishi bu juda yaxshi, ammo unda faqatgina yozishni va o'qishni emas, balki gapirish va so'zlab berish mahoratini ham rivojlantrish kerak, u o'ziga kerakli bilimlarni to'liq egallashi uchun uning gapirish mahorati ham muhim rol o'ynaydi, bu bilan u o'zining olgan bilimlarni namoyish eta oladi.

Bolalar nutqini rivojlantrish uning tarbiyachisi ya'ni mактабдаги o'qituvchisiga yoki boshqa pedagoglarga bog'liq. Chunki pedagog bolaning nutqini rivojlantrish uchun muhim bo'lgan usullar va metodlarini ham bilishi kerak, u bularni bilsa bolaning nutqni rivojlantrishni tashkillashtira oladi va u belgilab quyilgan usullardan foydalanadi. Agarda u tajribasiz bo'lса, ya'ni bu metod va usullarni bilmasa u o'zining hayot tajribasi yoki o'zining farzandlariga qo'llaydigan usuldan foydalanadi. Shuning uchun bola nutqi rivojida tarbiyachisining ham o'rni muhimdir.

Nutqi buzilgan bolalarda nutqni rivojlantrish uchun uning tarbiyachisi birinchi bo'lib o'zining xulq-atvorini me'yorida saqlashi kerak, ya'ni bolalarning kamchiliklariga qaramasdan ularni qo'llab-quvvatlashi, har qanday vaziyatda ham rag'batlantirishi, bolalardagi kamchiliklarning borligini ularning o'zlariga bildirmasligi, iloji boricha ularni ruhlantirib turishi kerak. Tarbiyachi ularga nisbatan beriladigan salbiy munosabatni umuman qo'llamasligi kerak. Bu ularning psixologik faoliyatida yani aqlida, miyasida ijobjiy jihatlarni rivojlantradi, ya'ni bunday bolalar bilan ishlayotganda birinchi darajali ularning psixologiyasini yaxshilash talab etiladi. Nutqi endi rivojlanib kelayotgan bolalarda nutqni rivojlantrish uchun ham ma'lum metodikalardan foydalanish kerak. Bulardan birinchisi Fonetika, ya'ni tovush va talaffuz tizimi bu bolaning faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola o'z nutqida harflarni va so'zlarni tug'ri talaffuz qilishi va ularning guruhlarini o'rganishi muhim hisoblanadi. Bola o'zining ona tili qoidalarni o'zining nutqidagi so'zlarni tug'ri talaffuz qilishni shu orqali organadi va bu uning nutqi tug'ri bo'lishiga yordam beradi. Keyingisi esa bu lug'atlar, chunki inson nutqida lug'atlar ham asosiy vazifalarni kasb etadi, tilda lug'atlarning ham turlari bor. Misol uchun, izohli lug'at, imlo lug'ati va boshqalar. Bularda omonimlar va sinonim so'zlar ham bor, bu bolaning nutqida foydalanish uchun kerakli so'zlardir, chunki inson nutqida omonim va sinonim so'zlar bolsa, uning nutqi ma'noli va ta'sirli boladi. Yana bir muhim jihat esa bu grammatika, bu eng asosiy narsalardan biri. Bola o'zining so'zlarini bir-biriga bog'lay olishi, sifat va fe'l kabi so'z turkumlarida birikmalar tuza olishi, sodda gaplar orqali qo'shma gaplar tuza olishi uchun albatta grammatic qoidalar juda muhim hisoblanadi. Xulosa qilib aytsak, Bolada nutqni uning go'daklik davridan boshlab asta-sekinlik bilan rivojlanib

boradi va uning nutqini ravon va mazmunli qilish esa uning maktab davriga tug'ri keladi. Buning uchun albatta uning tarbiyachisining muhim o'rinni egallaydi. Shuningdek, bola nutqini ayni rivojlanayotgan davrida unga birinchi darajali o'z ona tilisining asosiy qonun-qoidalari va atrofidagi muhit, ya'ni bolaning tarbiyachari: otanonasi va pedagog o'qituvchisi tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq, agar bularga amal qilinsa nafaqat sog'lom, balki nutqida tug'ma buzilishlari bor bolalarning ham nutqini rivojlantirishning imkoni bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.D.Razzoqovna "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" 2018-yil (71-75-sahifalar)
2. Q. Shodiyeva "Nutq o'stirish uslubiyati" (192-196-sahifalar)